O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA’LIM VA ILM-FAN VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI



“O‘ZBEK TILINING GLOBAL MAQOMI VA NUFUZINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI”

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI







2026-yil
16-oktabr

O‘ZBEK NORMATIV-HUQUQIY MATNLARINI LINGVO-MANTIQIY ANNOTATSIYALASH MEZONLARI

CRITERIA FOR LINGUO-LOGICAL ANNOTATION OF UZBEK LEGAL NORMATIVE TEXTS

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2026.10.16/SPJX2815

Elova Dilrabo Qudratilloyevna
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti, filologiya fanlari boyicha falsafa doktori (PhD)
E-mail:dilraboelova@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada o‘zbek tilidagi normativ-huquqiy matnlarni lingvo-mantiqiy annotatsiyalash mezonlarini ishlab chiqish muammosi tadqiq etiladi. Normativ-huquqiy matnning raqamli shaklda mavjudligi uning mazmuniy tuzilishini mashinali o‘qitish uchun yetarli emas. Bunday matnlarda deontik, shartli, temporal, strukturaviy va hisoblash munosabatlari o‘zaro birikib, normativ mazmunni shakllantiradi. Soliq kodeksining funksional-semantik jihatdan farqlanuvchi 158- va 265-moddalari tahlili annotatsiya qatlamlari normativ birlikning xususiyatiga qarab o‘zgarishini ko‘rsatadi. Shu bois lingvo-mantiqiy annotatsiyada teglar majmuini bir xil belgilash emas, matnda ifodalangan munosabatlarni aniqlash va ularni tegishli mezonlar asosida formal qayd etish muhim. Bunday yondashuv o‘zbek normativ-huquqiy matnlarini annotatsiyalash va ularni kompyuter vositasida qayta ishlash uchun lingvistik asos yaratadi.*

Kalit so‘zlar: *lingvo-mantiqiy annotatsiya, normativ-huquqiy matn, deontik modallik, normativ semantika, korpus annotatsiyasi, yuridik NLP, Soliq kodeksi.*

Annotation. *The article addresses the development of linguo-logical annotation criteria for Uzbek legal normative texts. Making legal texts digitally available does not, by itself, make their semantic structure suitable for machine processing. Such texts combine deontic, conditional, temporal, structural, and computational relations that jointly shape normative meaning. An analysis of Articles 158 and 265 of the Tax Code, which differ in their functional and semantic organization, shows that the layers required for annotation vary depending on the nature of the normative unit. Linguo-logical annotation should therefore focus not on applying a fixed set of tags to every text, but on identifying*

the relations expressed in each normative unit and formally representing them according to clearly defined criteria. This approach provides a linguistic basis for annotating Uzbek legal normative texts and their subsequent computational processing.

Keywords: *linguo-logical annotation, Uzbek legal text, deontic modality, normative semantics, corpus annotation, legal NLP, Tax Code.*

Normativ-huquqiy matnlarning raqamli shakli mavjudligi va ularning mashinada mazmuniy qayta ishlanishi – bu ikki xil narsa. O‘zbekiston Respublikasining qonunchilik bazasi, jumladan Soliq kodeksi, LexUZ portalida to‘liq elektron shaklda taqdim etilgan. Biroq ushbu matnlarni ko‘rish va qidirish emas, balki semantik jihatdan qayta ishlash – ya’ni matndagi majburiyat, ruxsat, taqiq, shart, vaqt, referensiya va hisoblash munosabatlarini mashina tushuna oladigan shaklda ajratib olish – hozircha to‘liq amalga oshirilmagan.

Xalqaro tajribada bu muammoga turli yo‘nalishlarda yondashiladi. Yuridik matnlardagi deontik modallikni korpus lingvistikasi asosida tadqiq etish [Matulewska, 2010: 75–92], normativ qoidalarni formal mantiqda ifodalash [Dragoni va boshq., 2018: 287–300; Athan va boshq., 2015: 151–188], shuningdek, huquqiy matnlarni mashinaviy qayta ishlash uchun annotatsiyalash [Tufiș va boshq., 2020: 2773–2777] bo‘yicha sezilarli natijalarga erishilgan. O‘zbek kompyuter lingvistikasida ham korpus birliklarini morfologik, sintaktik va uslubiy jihatdan annotatsiyalash, ularni formal teglar orqali belgilash bo‘yicha muayyan tajriba to‘plangan [Elova, 2021: 97–107; Elova, 2022: 84–96; Elov, Abdullayeva, 2024: 108–115]. Biroq normativ-huquqiy matnlardagi deontik, shartli, temporal, referensial va mantiqiy munosabatlarni o‘zaro bog‘liq annotatsiya qatlamlari sifatida formal tavsiflash masalasi alohida tadqiqot obyekti sifatida yetarlicha o‘rganilmagan.

Mazkur maqola ushbu bo‘shliqning bir qismini to‘ldirishga qaratilgan. Unda o‘zbek tilidagi normativ-huquqiy matnlarda lingvo-mantiqiy munosabatlarni annotatsiyalash mezonlari tadqiq etiladi. Bunda asosiy masala normativ-huquqiy matnda ifodalangan semantik, pragmatik va mantiqiy munosabatlarni aniqlash hamda ularni kompyuterda qayta ishlash imkonini beradigan formal annotatsiya birliklari orqali tavsiflashdan iborat.

Annotatsiya matn birligiga lingvistik yoki funksional axborot biriktirish jarayonidir. Teg esa ushbu axborotni formal qayd etish vositalaridan biri sifatida xizmat qiladi. Bu ikki tushunchani aynanlashtirmaslik muhim: annotatsiya keng mazmunli jarayon bo‘lsa, teglash uning formal belgilash usullaridan biridir

[Elova, 2021: 97–107; Elova, 2022: 84–96]. Ushbu farqlanish huquqiy matnlarni qayta ishlashda ayniqsa ahamiyatli, chunki bitta normativ birlikda bir nechta lingvo-mantiqiy munosabat bir vaqtda mavjud bo‘lishi mumkin va har biri alohida annotatsiya qarorini talab etadi. Huquqiy matnlarni formal jihatdan tavsiflash an’anasi uzoq tarixga ega. Dastlabki tajribalardan birida Britaniya fuqaroligi to‘g‘risidagi qonun Prolog tilida formallashtirilib, normativ qoidalarni mantiqiy qoidalar sifatida ifodalash imkoniyati ko‘rsatib berilgan [Sergot va boshq., 1986: 370–386]. Keyingi yillarda bu sohada ikki yo‘nalish – deontik mantiq asosida normativ munosabatlarni modellash [Alchourrón, Bulygin, 1971] va korpus lingvistikasi vositalari yordamida huquqiy matnlarni annotatsiyalash va tasniflash [Tufiș va boshq., 2020: 2773–2777] alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Deontik semantika nuqtai nazaridan huquqiy matnda uch asosiy munosabat – majburiyat (obligation), ruxsat (permission) va taqiq (prohibition) farqlanadi. Ularning har biri normaning muayyan mazmunini ifodalaydi va o‘zaro mantiqiy munosabatga kirishadi [Alchourrón, Bulygin, 1971]. Keyingi tadqiqotlarda huquqiy matndan majburiyat va taqiq mazmunini ifodalovchi birliklarni ajratish hamda ularni avtomatik tasniflash masalasi ham o‘rganilgan [Chalkidis va boshq., 2018: 254–259]. Biroq normativ-huquqiy matn faqat deontik munosabatlardan tuzilmaydi. Unda shart, vaqt, referensial bog‘lanish, konyunktiv va dizyunktiv munosabatlar, sintaktik va semantik qamrov, shuningdek, hisoblash munosabatlari ham ifodalanadi. Bularning har biri normativ mazmunning shakllanishida alohida vazifa bajaradi. Shu sababli lingvo-mantiqiy annotatsiyani bir o‘lchovli deontik teglar bilan cheklash yetarli emas. Annotatsiya normativ birlik tarkibidagi munosabatlarni bir necha qatlamda aks ettirishi zarur.

Tadqiqotning empirik materialini O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining ikki moddasi tashkil etadi: 158-modda – soliq auditi va sayyor soliq tekshiruvi materiallarini ko‘rib chiqish tartibi hamda 265-modda – soliqni hisoblab chiqarish tartibi. Har ikki modda LexUZ portalidagi amaldagi rasmiy tahrir asosida olingan.

Ikki moddaning tanlanishi ularning funksional-semantik tuzilishidagi farq bilan bog‘liq. 158-modda protsessual-administrativ xususiyatga ega bo‘lib, unda subyektlarning huquq va majburiyatlari, harakatlarning vaqtiy ketma-ketligi hamda shartli konstruksiyalar ustun. 265-modda esa fiskal-hisoblash xususiyatiga ega: unda soliq bazasi, stavka va soliq summasini hisoblash bilan bog‘liq miqdoriy munosabatlar asosiy o‘rin tutadi. Bu farq ikki xil normativ tuzilmaning annotatsiyaga qo‘yadigan talablarini qiyosiy tahlil qilish imkonini beradi.

Tadqiqotda quyidagi metodlar qo‘llangan. Kontekstual tahlil har bir normativ birlikni modda doirasida hamda boshqa moddalar bilan bog‘liqlikda baholash imkonini beradu. Semantik-sintaktik tahlil orqali gap tarkibidagi shartli qurilmalar, sanash konstruksiyalari va qamrov munosabatlari aniqlangan. Pragmatik tahlil matnda ifodalangan majburiyat, ruxsat va taqiq mazmunini aniqlashga qaratilgan. Formal-mantiqiy rekonstruksiya tabiiy tilda ifodalangan munosabatni aniqroq ko‘rsatish zarur bo‘lgan o‘rinlarda qo‘llaniladi. Lingvistik annotatsiya esa aniqlangan hodisalarni teglar orqali formal qayd etishning yakunlovchi bosqichini tashkil etadi.

Qo‘llangan metodlar asosida lingvo-mantiqiy annotatsiya jarayoni quyidagi ketma-ketlikda tashkil etildi (1-rasm).



1-rasm. Lingvo-mantiqiy annotatsiya jarayonining ketma-ketligi


Tahlilda aniqlangan lingvo-mantiqiy munosabatlarni formal qayd etish uchun quyidagi teglar tizimidan foydalanildi (1-jadval).

1-jadval. Lingvo-mantiqiy annotatsiyada qo‘llangan teglar tizimi

Teg	To‘liq nomi	Annotatsiya qilinadigan hodisa	Asosiy mezon
DEON-OBL	Deontik majburiyat	Majburiy harakat, bajarilishi shart bo‘lgan norma	Harakatning bajarilishi subyekt uchun majburiyligi ifodalanadi
DEON-PER	Deontik ruxsat	Ruxsat etilgan harakat, imkoniyat	Harakatni amalga oshirish subyektning ixtiyorida ekani ifodalanadi
DEON-PROH	Deontik taqiq	Taqiqlangan harakat	Harakatning amalga oshirilishi mumkin emasligi ifodalanadi
COND	Shartli munosabat	Bir holat yoki harakatning boshqasining yuzaga kelish sharti	Shart–natija munosabati til birliklari orqali ifodalanadi
TEMP	Temporal munosabat	Vaqt, muddat, ketma-ketlik	Harakatlarning bajarilish vaqti, muddati yoki ularning ketma-ketligi ko‘rsatiladi
REF	Referensial munosabat	Boshqa normativ birlikka havola	Mazmunning boshqa modda, band yoki normativ hujjatga bog‘liqligi ifodalanadi
CONJ	Konyunktiv munosabat	Bir necha shart yoki harakatning birgalikda amal qilishi	Barcha ko‘rsatilgan shartlar bir vaqtda bajarilishi talab etiladi
DISJ	Dizyunktiv munosabat	Muqobil birliklar o‘rtasidagi tanlash munosabati	Ko‘rsatilgan variantlardan biri yoki bir nechtasi tanlanishi mumkinligini bildiradi
CALC	Hisoblash munosabati	Miqdoriy ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi hisoblash bog‘liqligi	Soliq bazasi, stavka, soliq summasi va boshqa miqdoriy munosabatlar ifodalanadi
SCOPE	Qamrov munosabati	Normaning amal qilish doirasi	Muayyan subyektlar, obyektlar, holatlar yoki territoriya bo‘yicha qo‘llanish chegarasi ko‘rsatiladi

Soliq kodeksining 158-moddasi asosidagi empirik tahlil. 158-modda soliq auditi va sayyor soliq tekshiruvi materiallarini ko‘rib chiqish tartibini belgilaydi. Unda protsessual harakatlarning bajarilish muddati, subyektlarning huquq va majburiyatlari, muayyan harakatni amalga oshirish shartlari hamda boshqa normativ birliklarga havolalar o‘zaro bog‘liq holda ifodalangan. Shu jihatdan modda matnida deontik, temporal, shartli va referensial munosabatlarni ajratish mumkin.

Moddaning birinchi qismida quyidagi normativ birlik mavjud: *“O‘ziga nisbatan soliq auditi va sayyor soliq tekshiruvi o‘tkazilgan shaxs soliq tekshiruvi materiallarini ko‘rib chiqish jarayonida shaxsan va (yoki) o‘z vakili orqali ishtirok etishga haqli”*. Bu birlikda ikki lingvo-mantiqiy munosabat birga ifodalangan. *Haqli* leksemasi subyektning ishtirok etishi majburiy emasligini, unga bunday imkoniyat berilganini bildiradi. Shu asosda birlik **DEON-PER** tegi bilan belgilanadi. *Shaxsan va (yoki) o‘z vakili orqali* konstruksiyasi esa ishtirok etish usullarining o‘zaro munosabatini ko‘rsatadi. Subyekt shaxsan, vakili orqali yoki har ikki shaklda ishtirok etishi mumkin. Bu munosabat **DISJ** tegi bilan belgilanadi. *Va (yoki)* konstruksiyasida ifodalangan munosabatni formal jihatdan quyidagicha ko‘rsatish mumkin (2-rasm):



2-rasm. Ishtirok etish usullarining formal ifodasi

Rasmda va (yoki) konstruksiyasi ifodalagan uch imkoniyat – shaxsan, vakil orqali yoki har ikki usulda ishtirok etish ko‘rsatilgan. Demak, bu o‘rinda oddiy dizyunksiya emas, ikki variantning birgalikda amalga oshishini ham qamrab oluvchi munosabat yuzaga keladi.

Moddaning birinchi qismida harakatning bajarilish muddati aniq chegaralangan: *“dalolatnoma tuzilgan kundan e’tiboran o‘n kun o‘tgach, lekin o‘n besh kundan kechiktirmay ko‘rib chiqilishi kerak”*. *O‘n kun o‘tgach* birligi muddatning quyi chegarasini, *o‘n besh kundan kechiktirmay* birligi esa yuqori chegarasini belgilaydi (TEMP). *Kerak* leksemasi ayni harakatning belgilangan muddat doirasida bajarilishi majburiyligini ko‘rsatadi (DEON-OBL). Bitta normativ birlikda temporal va deontik munosabatlar o‘zaro birikkan.

Shartli munosabat *“taraflarda videokonferensaloqani amalga oshirishning texnik imkoniyati mavjud bo‘lganda tekshiruv materiallari videokonferens aloqa rejimida ko‘rib chiqilishi mumkin”* birligida kuzatiladi. Harakatning amalga oshishi texnik imkoniyatning mavjudligiga bog‘langan. *Mavjud bo‘lganda* konstruksiyasi shartni (COND), *mumkin* leksemasi esa ruxsat mazmunini ifodalaydi (DEON-PER).

Referensial bog‘lanish *“agar ushbu Kodeksning 159¹-moddasida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa”* birligida namoyon bo‘ladi. Bu yerda normaning amal qilishi boshqa moddada belgilangan qoida bilan bog‘langan (REF), *agar ... nazarda tutilmagan bo‘lsa* konstruksiyasi esa shart munosabatini yuzaga keltiradi (COND). Referensial va shartli munosabat bir birlik doirasida kesishgan.

158-modda tahlilida deontik, temporal, shartli va referensial munosabatlar, shuningdek, konyunktiv va dizyunktiv bog‘lanishlar aniqlandi. Ayrim normativ birliklarda bir nechta munosabat bir vaqtda ifodalangan. Bunday birliklarni annotatsiyalashda bir necha teg qo‘llanadi.

Soliq kodeksining 265-moddasi asosidagi empirik tahlil. 265-modda qo‘shilgan qiymat solig‘ini hisoblab chiqarish tartibini belgilaydi. Moddaning bosh normativ birligida quyidagi qoida berilgan: “*Soliqni hisoblab chiqarish tartibi soliq bazasidan, soliq stavkasidan, shuningdek mavjud bo‘lgan taqdirda, soliq imtiyozlaridan kelib chiqqan holda soliq davri uchun soliq summasini hisob-kitob qilish qoidalarini belgilaydi”.* 158-moddada protsessual harakatlar, ularning bajarilish sharti va muddati yetakchi bo‘lsa, bu yerda soliq summasini aniqlashga asos bo‘ladigan miqdoriy ko‘rsatkichlar o‘zaro bog‘langan. Hisoblash munosabati oldingi o‘ringa chiqadi.

Soliq bazasidan, soliq stavkasidan ... kelib chiqqan holda konstruksiyasi soliq summasini hisoblashda asos bo‘ladigan miqdoriy ko‘rsatkichlarni bir tizimga birlashtiradi. Matnda hisoblash formulasi bevosita berilmagan. Biroq soliq bazasi va soliq stavkasi hisob-kitobning asosiy tarkibiy qismlari sifatida ko‘rsatilgan, natijada esa soliq davri uchun soliq summasi aniqlanadi (CALC).

Shu birlikning o‘zida shart munosabati ham mavjud. *Mavjud bo‘lgan taqdirda* konstruksiyasi soliq imtiyozlarining hisob-kitobda e’tiborga olinishi ularning mavjudligiga bog‘liqligini ko‘rsatadi (COND). Demak, imtiyoz hisoblash munosabatining doimiy tarkibiy qismi emas, shart yuzaga kelgandagina e’tiborga olinadigan komponentdir. Mazkur munosabatni umumiy ko‘rinishda quyidagicha ifodalash mumkin:

SOLIQ_SUM = f (BAZA, STAVKA, IMTIYOZ)

Bunda IMTIYOZ o‘zgaruvchisi faqat tegishli imtiyoz mavjud bo‘lgan holatda hisobga olinadi. Bu formal ifodaning lingvistik asosi matnning o‘zida berilgan. Soliq bazasi va soliq stavkasi soliq summasini hisoblashda asos bo‘ladigan ko‘rsatkichlar sifatida sanalgan, soliq imtiyozi esa mavjud bo‘lgan taqdirda hisobga olinadi. Formula shu munosabatlarning umumiy tuzilishini ko‘rsatadi, hisoblashning matematik amalini belgilamaydi. Moddaning yana bir muhim birligi “*Soliqni hisoblab chiqarish soliq to‘lovchi tomonidan mustaqil ravishda amalga oshiriladi”* konstruksiyasidir. Bu birlikda hisoblashning o‘zidan ko‘ra uni kim amalga oshirishi muhim. *Soliq to‘lovchi tomonidan* birikmasi harakat subyektini belgilaydi, *mustaqil ravishda* esa hisob-kitobni soliq to‘lovchining o‘zi bajarishini ta’kidlaydi. Demak, soliqni hisoblab chiqarish majburiyati soliq to‘lovchiga yuklangan (DEON-OBL).

Ikki modda tahlili ularning lingvo-mantiqiy tuzilishida sezilarli farq borligini ko‘rsatdi. 158-modda protsessual harakatlar, ularni bajarish muddati, sharti hamda subyektlarning huquq va majburiyatlarini tartibga soladi. 265-moddada

esa soliq summasini hisoblashga asos bo‘ladigan miqdoriy ko‘rsatkichlar va ular o‘rtasidagi munosabat oldingi o‘ringa chiqadi. Funksional-semantik tuzilishi turlicha bo‘lgan normativ birliklarni bir xil annotatsiya qatlamlari bilan tavsiflash yetarli emas. 158-modda tahlilida DEON-PER, DEON-OBL, TEMP, COND, CONJ va DISJ teglari qo‘llandi. Bu teglarning bir qismi alohida birliklarda, ayrimlari esa bir normativ birlik doirasida o‘zaro birikkan holda namoyon bo‘ldi. Hisoblash munosabati aniqlanmadi. 265-moddada boshqa holat kuzatiladi. Soliq bazasi, stavka va imtiyozning soliq summasini aniqlashdagi ishtiroki CALC tegi orqali qayd etildi. Mavjud bo‘lgan taqdirda konstruksiyasi hisoblash munosabatiga shart komponentini kiritadi (COND). Soliqni hisoblab chiqarishning soliq to‘lovchiga yuklanishi esa deontik munosabatni yuzaga chiqaradi (DEON-OBL). Shunday qilib, ikki moddada DEON-OBL va COND uchrasa-da, ularning boshqa annotatsiya birliklari bilan birikishi bir xil emas. Bu farq moddalarning funksional-semantik xususiyati bilan bog‘liq. Protsessual normada harakatning kim tomonidan, qanday shartda va qaysi muddatda bajarilishi muhim bo‘lsa, hisoblashga oid normada miqdoriy ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi bog‘lanish asosiy o‘ringa chiqadi. Faqat deontik teglar bilan cheklanish ikkinchi holatdagi hisoblash munosabatini, faqat hisoblashga yo‘naltirilgan teglar esa birinchi holatdagi protsessual munosabatlarni to‘liq aks ettirmaydi.

Tahlil qilingan har ikki moddada deontik munosabat mavjud, ammo uning boshqa munosabatlar bilan birikishi bir xil emas. 158-moddada u temporal, shartli va strukturaviy munosabatlar bilan, 265-moddada esa hisoblash va shart munosabatlari bilan birga keladi. Bu farq normaning funksional-semantik xususiyati annotatsiya qatlamlarining tarkibiga ham ta’sir qilishini ko‘rsatadi.

Xulosa. Normativ-huquqiy matnni lingvo-mantiqiy annotatsiyalash alohida til birliklarini teglar bilan belgilashdan kengroq jarayondir. Norma mazmunida majburiyat yoki ruxsat muayyan shart bilan bog‘lanishi, harakatning muddati belgilanishi, ayrim birliklar konyunktiv yoki dizyunktiv munosabatga kirishishi mumkin. Hisoblashga oid normada esa boshqa holat kuzatiladi. Unda miqdoriy ko‘rsatkichlar va ular o‘rtasidagi bog‘lanish muhimlashadi. Annotatsiyada shu munosabatlarning qaysi biri matn mazmunini shakllantirayotgani hisobga olinishi kerak. 158- va 265-moddalar aynan shu jihatdan bir-biridan farq qiladi. Protsessual normada harakatning subyekti, sharti va bajari lish muddati muhim bo‘lsa, hisoblashga oid normada miqdoriy ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi munosabat oldingi o‘ringa chiqadi. Annotatsiya qatlamlari ham shunga qarab o‘zgaradi. Bir

xil teglar majmui funksional-semantik tuzilishi turlicha bo‘lgan barcha normativ birliklarni birdek tavsiflay olmaydi.

Taklif etilgan mezonlar o‘zbek normativ-huquqiy matnlarini ko‘p qatlamli annotatsiyalash uchun lingvistik asos yaratadi. Hozirgi tahlilimiz Soliq kodeksining moddalari bilan chegaralangan. Keyingi tadqiqotlarimizda mezonlarning boshqa funksional turdagi normalarda qanday ishlashi tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR

1. Alchourron C.E., Bulygin E. Normative Systems. – Wien; New York: Springer-Verlag, 1971. – 208 p.

2. Athan T., Governatori G., Palmirani M., Paschke A., Wyner A. LegalRuleML: Design Principles and Foundations // Reasoning Web. Web Logic Rules: 11th International Summer School 2015, Tutorial Lectures. Lecture Notes in Computer Science. – Cham: Springer, 2015. – Vol. 9203. – P. 151–188. DOI: 10.1007/978-3-319-21768-0_6.

3. Chalkidis I., Androutsopoulos I., Michos A. Obligation and Prohibition Extraction Using Hierarchical RNNs // Proceedings of the 56th Annual Meeting of the Association for Computational Linguistics. Vol. 2: Short Papers. – Melbourne: Association for Computational Linguistics, 2018. – P. 254–259. DOI: 10.18653/v1/P18-2041.

4. Dragoni M., Villata S., Rizzi W., Governatori G. Combining Natural Language Processing Approaches for Rule Extraction from Legal Documents // AI Approaches to the Complexity of Legal Systems. Lecture Notes in Computer Science. – Cham: Springer, 2018. – Vol. 10791. – P. 287–300. DOI: 10.1007/978-3-030-00178-0_19.

5. Elov B.B., Abdullayeva O.X. O‘zbek tili korpusini sintaktik teglash masalasi // Kompyuter lingvistikasi: muammolar, yechim, istiqbollar: xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, 2024. – Vol. 1, № 01. – B. 108–[yakuniy bet tekshiriladi].

6. Elova D.Q. O‘zbek tili milliy korpusi uchun chegaralangan leksikani annotatsiyalash muammolari xususida // O‘zbekiston: til va madaniyat. – Toshkent, 2021. – № 4. – B. 97–107.

7. Elova D. Fe’l grammatik shakllarining uslubiy xoslanishiga ko‘ra lingvistik annotatsiyalash masalasi xususida // O‘zbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya. – Toshkent, 2022. – № 2 (5). – B. 84–96.

8. Matulewska A. Deontic Modality and Modals in the Language of Contracts // Comparative Legilinguistics. – 2010. – Vol. 2. – P. 75–92.

9. Sergot M.J., Sadri F., Kowalski R.A., Kriwaczek F., Hammond P., Cory H.T. The British Nationality Act as a Logic Program // Communications of the ACM. – 1986. – Vol. 29, № 5. – P. 370–386. DOI: 10.1145/5689.5920.

10. Tufiș D., Mitrofan M., Păiș V., Ion R., Coman A. Collection and Annotation of the Romanian Legal Corpus // Proceedings of the Twelfth Language Resources and Evaluation Conference (LREC 2020). – Marseille: European Language Resources Association, 2020. – P. 2773–2777.

11. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 2019-yil 30-dekabr, O‘RQ-599-son // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi – LexUZ. Amaldagi tahrir.

MUNDARIJA

KIRISH SO‘ZI		
Sirojiddinov Sh.S.	O‘zbek tilining xalqaro nufuzini oshirish zarurati	**6**
I. O‘ZBEK TILINING JAHON TILLARI TIZIMIDAGI O‘RNI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI		
Xolmanova Z.	O‘zbek tilining jahon tillari tizimidagi mavqeyini belgilashda lingvodidaktikaning o‘rni	**9**
Abdushukurov B.	Alisher Navoiy asarlaridagi qadimgi turkiy fe’llar semantikasi	**16**
Xudoyberdiyev J.	Mahmud Koshg‘ariy – singarmonizmning birinchi nazariyotchisi va ovrupolik olimlarning singarmonizm haqidagi xato qarashlari	**30**
Abdurahmanova M.	Alisher Navoiy merosi psixolingvistik talqinda	**45**
Xolmurodova M.	“Nasoyim ul-muhabbat” asaridagi tabobatga doir ayrim arabcha so‘zlar	**51**
O‘razova I.	Ot frazemalarning grammatik funksiyasi (Alisher Navoiy “Xamsa”sidagi frazemalar misolida)	**56**
Maxkamova D.	O‘zbek tili axborot-kommunikatsiya texnologiyalari	**60**

	terminologiyasi taraqqiyoti va tadqiqi	
Oripova M.	Sinestezik metaforalarda sezgilar interperatsiyasi	**66**
Muratova N.	Tilak va tabrik nutqiy aktlarida kommunikativ taktikaning tanlanish xususiyatlari	**72**
Abdullayeva G.	Folklor diskursida o‘xshatishlarning semantik-struktur va kognitiv tahlili	**78**
Xayrullayeva R.	Kichraytirish-erkalash shakllarining pragmatik ifodalanishi	**86**
Jumaniyozova Ch.	Sifat so‘z turkumida obyektiv va subyektiv belgilarning ifodalanishi	**90**
Abduvaliyeva K.	“Shajarayi turk” asaridagi ba’zi urug‘ nomlarining etnotoponim sifatidagi tahlili	**95**
Mullaboyeva Sh.	O‘zbek tilida o‘xshatishlar asosida estetik bahoning ifodalanishi	**107**
Mamadoliyeva M.	Graduallik kategoriyasining lingvistik tabiati va uning turdosh hodisalar bilan munosabati (Xayriddin Sultonov va Iqbol Mirzo asarlari misolida)	**115**
Mamarasulova M.	O‘zbek tili fonosemantik tahlilining fonologik asoslari	**130**
Siddiqova N.	O‘zbek xalq maqollaridagi eskirgan leksika: tarkibi,	**132**

	variantlanishi va lingvopoetik vazifalari	
Yusupova A.	Konseptlarning metaforik ifodalanishi va tahlil shakllari	**144**
O‘ralova N.	O‘zbek tilshunosligida parsellyatsiya hodisasi, uning sintaktik tavsifi va ega-kesim munosabatidagi o‘rni	**150**
Maxmudova M.	Kelishik kategoriyasining o‘rganilish tarixiga doir ayrim mulohazalar	**158**
Nurmatova S.	O‘zbek tilida rang ifodalovchi birliklarning lingvokognitiv strukturasi va konseptualizatsiya masalalari	**168**
Keldiyorova Z.	O‘zbek tilidagi shikoyat matnlarida nutqiy aktlarning ifodalanishi	**174**
Aliqulova Z.	Toponimlarning axborotni saqlash va uzatish xususiyatlari	**178**
Jurayeva Sh.	Hurmat kategoriyasining lisoniy birliklar bilan ifodalanishi	**183**
Karimova U.	Kultegin bitiktoshidagi xarakter-xususiyat bildiruvchi sifatlar tahlili	**188**
II. O‘ZBEK TILINI XALQARO MAYDONDA TARG‘IB QILISH STRATEGIYALARI		
Shamsiyeva M.	Peyzaj matnlari orqali turizmni rivojlantirish istiqbollari	**194**

Jo‘rayeva M.	Matnni tushunishda asar sarlavhasining ahamiyati	**201**
III. GLOBALLASHUV SHAROITIDA MILLIY TIL VA MADANIYATNI SAQLASH MASALALARI		
Ashirboyev S.	Adstrat sharoitidagi turkiy shevalarning o‘zaro ta’siri masalasi	**205**
Farhad Rahimi	Yakşı/ ĥoş, yap/ lap, ķop/ köp/ ĥob, appaķ/ pāk kelimeleri üzerine On the words yakşı/ ĥoş, yap/ lap, ķop/ köp/ ĥob, appaķ/ pāk	**210**
Xakimova M.	O‘zbek tilidagi metaforik konseptuallashtirishning milliy xususiyatlari	**232**
Abbozov O.	So‘x toponimlarining lingvomadaniy xususiyatlari	**238**
Komilova G.	O‘zbek tilida qadriyatlar tipologiyasining lingvistik verbalizatsiyasi	**245**
Xomidova M.	Zamonaviy o‘zbek badiiy matnlarida ertak elementlarining intertekstual xususiyatlari	**253**
Həsənzadə Səmra	Qrammatik metaforun türk dillərində reallaşması (özbək dilinin materiallari əsasinda)	**261**
Davronova Z.	Antroponimik freymlarda registrdan og‘ish fenomini (Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romani misolida)	**272**

Tursinbayeva Sh.	Badiiy matnda onomastik birliklarning lingvomadaniy imkoniyatlari	**276**
Bekmuradova I.	O‘zbek tilidagi ijobiy fe’l-atvor leksemalarining semantik tasnifi	**283**
Imomova I.	Fitratning dramatik asarlarida maqollarning qo‘llanilishi va funksional-semantik xususiyatlari	**291**
Turgunboeva D.	Globallashuv sharoitida o‘zbek va ingliz lingvomadaniyatida miqdoriy me’yor	**297**
Amrullayeva M.	O‘zbek tilida inson xarakterini ifodalovchi frazemalarning semantik mikromaydonlari	**305**
Abdug‘afurova A.	Lingvomadaniy kodlarning poetik faollashuvi: Faxriyor va Ulug‘bek Hamdam she’riyati qiyosida	**312**
Muzaffarova Z.	Badiiy matnda qo‘llangan metaftonimik birliklarning kognitiv xususiyatlari	**322**
Jumayeva M.	Son komponentli lug‘aviy birliklarning lingvokulturologik tahlili	**327**
Xolmo‘minova H.	Frazemalarning lingvomadaniy tahlili	**333**
IV. O‘ZBEK TILINI O‘QITISHNING ZAMONAVIY METODLARI VA XORIJIY TAJRIBA		

Xusanova N.	Raqamli ta’lim muhitida o‘qish savodxonligi transformatsiyasi vositasida boshlang‘ich o‘quvchilarning kreativligini shakllantirish	**337**
Mamirova X.	Bolalarda ko‘p ma’noli so‘zlarni o‘zlashtirishning psixolingvistik mexanizmlari va til ta’limiga ta’siri	**344**
Arolova N.	Maktabgacha yoshdagi o‘zbek bolalari nutqida sintaktik tejamkorlik	**351**
Mirnosirova D.	Nutqiy ijod haqidagi nazariy qarashlar talqini	**356**
Nurboboyeva R.	Erta yoshdagi bolalar ta’limida adabiyotning tutgan o‘rni	**363**
Keldiboyeva M.	O‘zbek tili omonimlarini o‘zlashtirishda kontekst va assotsiatsiyaning psixolingvistik roli	**369**
V. TARJIMA VA LINGVOMADANIY ALOQALAR: XALQARO HAMKORLIKNING MUHIM OMILI SIFATIDA		
Mustafa Said Arslan	Türkiye türkçesi ve özbek türkçesi arasindaki yakinliğin öğretimdeki yansimalari: özbek türkçesi öğretiminde karşilaşilan sorunlar ve öneriler	**378**
Kalanova D.	O‘.Hoshimov “Dunyoning ishlari” asarining koreyscha tarjimasida milliy-madaniy realiyalarning berilishi	**389**

Muhammadiyeva D.	Ko‘p tilli parallel korpusning tarjima birliklarini qiyosiy o‘rganishdagi imkoniyatlari	**400**
Abbasova Ş.	Özbek Yazı Dili ve Azerbaycan Türkçesi'nin Ağızlarında Akrabalık Terimleri	**411**
Qarshiyev K.	Badiiy tarjimaning adabiy-estetik tafakkur evolyutsiyasiga ta’siri (Jamol Kamolning tarjimonlik faoliyati misolida)	**418**
Rahimova Z.	Parallel korpuslarning tarjimashunoslik va qiyosiy tilshunoslikdagi ilmiy ahamiyati	**428**
Bozorova S.	Rus tilidagi ayrim gippologik birliklar tadqiqiga doir	**433**
Axmedova N.	O‘zbek va ingliz tillarida ruhiy holat birliklarining semantik farqlari va kontekstual tarjimasi	**442**
Davlatova R.	Sun’iy intellekt asrida inson nutqi, tilni idrok etish va psixolingvistik jarayonlar	**448**
Turdiyeva R.	Ingliz, qoraqalpoq va o‘zbek tillaridagi maqollarda zoonimlarning lingvokognitiv tahlili (“bo‘ri” misolida)	**462**
Ataniyazova S.	O‘zbek va ingliz tillarida mayl, zamon va modallikning muloqot xulqidagi funksional-uslubiy imkoniyatlari	**466**
Sayfiyeva K.	O‘zbek va ingliz fitonim komponentli maqollarida inson	**472**

	konseptining kognitiv metaforik modellari	
Tillayeva O.	O‘zbek va turk maqollarida erkak konseptining semantik maydoni	**485**
Musurmankova Sh., **Abdullayeva D.**	“Ikki eshik orasi” romanidagi murojaat birliklarining lingvomadaniy xususiyatlari va tarjima muammolari	**495**
Abdullayeva M.	Ingliz va o‘zbek maqollarida nutqiy antonimiyaning lingvokognitiv xususiyatlari	**502**
VI. AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA RAQAMLI MUHITDA O‘ZBEK TILINING RIVOJI		
Abjalova M.	O‘zbek tili multikorpusida aksentologik korpus va uning ahamiyati	**513**
Elova D.	O‘zbek normativ-huquqiy matnlarini lingvo-mantiqiy annotatsiyalash mezonlari	**524**
Kasimova Z.	O‘zbek tili iboralar korpusini yaratishning lingvistik va kompyuter asoslari	**534**
Nurullayeva O.	Barqaror birikmalar resurslari va parallel korpus uchun baza tuzish mezonlari	**542**
Musulmonova K.	Lingvistik ekspertologiyada matn identifikatsiyasi bo’yicha ekspert xulosalarini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari	**550**

Umarova Sh.	Kollokatsiyalarni korpus asosida aniqlashning nazariy va metodologik asoslari	**556**
Akramdjanova M.	Parallel korpusning madaniyatlararo kommunikatsiyadagi o‘rni	**564**
Buronova R.	Raqamli muhitda o‘zbek tilidagi neologizmlarning shakllanishi	**570**
Shodmonaliyeva Y.	Sentiment tahlilda tasdiq-inkor emojlarining diskursiv va pragmatik funksiyalari	**576**
Rayimjonova M.	Rauf Parfi she’riyatining leksik-statistik xususiyatlari	**591**
VII. XALQARO TA’LIM DASTURLARI VA O‘ZBEK TILI: IMKONIYAT VA ISTIQBOLLAR		
Mirzəli Məleykə	Azərbaycanda özbək dilinin tədrisi: təcrübə və perspektivlər (bakı slavyan universitetinin timsalında)	**595**
Iskandarova G.	O‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘rganishda so‘z ma’nolarini o‘zlashtirish	**603**
VIII. O‘ZBEK TILI VA DIPLOMATIYA: XALQARO MUNOSABATLARDA TILNING O‘RNI		
Темирова Б., **Темирова М.**	Кыргыз, өзбек тилдери жана алардын адабий-маданий байланыштардагы ролу	**610**

Nazarov Q.	O‘zbek diplomatik diskursida metaforalarning kommunikativ-pragmatik xususiyatlari	**620**
IX. ILMIY TADQIQOTLAR VA LINGVISTIKADA XALQARO HAMKORLIK MASALALARI		
Berdak Yusuf	O‘zbek tilining shakllanish jarayoni va eski o‘zbek tili terminlari	**626**
Qurbonova M.	Xarizmatik nutq haqidagi nazariy qarashlar talqini	**632**
Umurzoqova M.	Erkin A’zam asarlarida lisoniy shaxs tiplari	**640**
Mirzaali Malika	O‘zbek tılının mavsumıy marosımlar leksıkasıda turkıy areal mavqeyı	**646**
Məmmədova A.	Xarəzm Türkcəsində Və Müasir Özbək Dilində Qohumluq Terminlərində Cins Kateqoriyasinin İfadəsi	**661**
Tuxtasinova M.	L.Z.Budagov lug‘atidagi umumturkiy leksik fond: “tur.” pometali leksemalarning tarixiy-qiyosiy tahlili	**670**
Abdullayeva S.	So‘z yasalishını qıyosıy-tıpologık tadqıq etısh metodologıyası va tahlıl mezonları	**681**
Xasanova G.	Kinesikaning lingvistik tadqiqi: shakllanish tarixi va kommunikativ funksiyalari	**688**

Rajabov N.	O‘zbek tilida ng fonemasining talaffuzi, imlosi va tarixiy taraqqiyoti	**695**
Mirzayeva G.	O‘zbek tilida tovush o‘zgarishlarining neyrolingvistik asoslari	**699**
Arislanova M.	She’riy matnning konseptual tizimi va lingvokognitiv xususiyatlari (Erkin Vohidov ijodi misolida)	**706**
Muhammadiyeva M.	“Shum Bola” qissasidagi ba’zi polisemantik leksemalar tahlili	**717**
Abdullayev G‘.	Fitrat she’riyatidagi turkiy so‘zlarning emotsional-ekspressiv xususiyatlari	**722**
Tursunova S.	Ironiyada implikatura fenomeni va yashirin ma’no mexanizmlari	**726**
Turobova N.	Badiiy diskursda morfologik vositalarning pragmatik xususiyatlari	**737**
Utegenova O‘.	O‘zbek tilida tasviriy ifodalarning badiiy matnda qo‘llanilishi	**744**
Komilova G.	Tarixiy-badiiy matnlar korpuslarini yaratish zarurati va ularni semantik modellashtirish masalalari	**749**
Haydaraliyeva Sh., Mo‘minova M.	O‘zbek tili leksikasining taraqqiyot tamoyillari va semema tushunchasi	**759**

Axmedova M.	Diskurs tushunchasining lingvistik talqini: nazariy yondashuv va ilmiy qarashlar	**768**
Komilova Sh.	Lingvokultrologiyada evfemizm va milliy mentalitet: ayollar nutqi misolida nazariy talqinlar	**774**
Suyunova D.	“Boburnoma” dagi leksik qatlamlarning “Boburiynoma”da badiiy qayta faollashuvi: leksik-semantik va funksional-uslubiy tahlil	**780**
Maqsudaliyeva Y.	Lingvistik ekspertiza va lingvokriminalistik tahlil: nazariya va amaliyot	**786**
Abdurasulova D.	O‘zbek qizlari nutqidagi neonim va slenglarning pragmalingvistik tadqiqi	**792**
Majidova M.	Tibbiy soha rahbarlari kinesik nutqining lingvosomatik tadqiqi	**797**
Abdullayeva I.	Gender qadriyatlarning aksiolingvistik tahlili	**802**
X. O‘ZBEK TILINING OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI VA MEDIA MAKONIDAGI O‘RNI		
Saydaliyeva M.	Kinodiskurs multimediali muloqot tizimi sifatida	**809**
Otaxonova S.	Mediamatnlarda antroponimlarning pragmatik imkoniyatlari	**813**